

## O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNING ORTISHI VA UNGA QARSHI CHORALAR

**Narzullayev Nursulton Shuhrat o'g'li**

**Toshboyev Og'abek Oltiboy o'g'li**

**Bekkamov Mansur Ahmad o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogiga instituti

Talabalari

Telfon raqami: +998932464437

**Annotatsiya:** Global muammolar. O'zbekistonda ishsizlikning jadallashuvi. Kadrlar yetishmovchiligi.

**Kalit so'zlar:** Ishsizlik. Mehnat. Layoqat. Kadrlar. Samaradorlik. Bandlik.

Ishsizlik juda ko'p muammolarga zamin yaratadi — jinoyatchilik oshadi, oilalarda notinchlik paydo bo'ladi, bolalarning tarbiyasi buziladi. Ishsizlikning ma'lum darajaga yetishi hatto davlatchilik tanazzuliga ham sabab bo'lishi mumkin. Ya'ni bu yerda illatli doira paydo bo'ladi: ishsizlar ko'payishi davlatni zaif qiladi, zaif davlatda esa ishsizlar yanada ko'payadi. Lekin dunyoning xoh rivojlangan, xoh rivojlanayotgan biror davlati yo'qki, ishsizlik muammosi bo'lmasa.

Bizni ko'proq o'zimizdagi holat qiziqtiradi. O'zbekistonda rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ishga layoqatli aholining taxminan 10 foizi ishsiz. Ya'ni ichki mehnat bozorida band bo'lganlar, chetga ketganlardan tashqari 1,5 mln nafarga yaqin fuqaro ishsiz hisoblanadi. Ishsizlik jiddiy muammo ekanligi, unga qarshi astoydil kurashish zarurligini e'tirof etgan holda, bugun masalaga ikkinchi tarafdan yondashib ko'ramiz.

Bugun aksariyat tashkilotlar, ayniqsa nodavlat kompaniyalar yaxshi xodimlar qidirib, bo'sh ish o'rnlari haqida e'lонlarni muntazam joylashtirib borishadi. Eng katta ish beruvchi bo'lgan davlat tizimida ham vakant talaygina.

Afsuski, juda ko'pchilik yoshlari, ya'ni mehnat bozorini muttasil to'ldirib borayotganlar amalda imkonsiz talablar bilan ham qimmatli vaqtlarini, ham yaxshi imkoniyatlarini qo'lidan boy beradi. Chunki hech kim yosh mutaxassisni diplomi borligi uchungina, yoki shu odam ishsizligi uchungina 10 mln so'm maosh bilan kutib o'tirmaydi.

Sabot bilan ishlagan, aqlli, bilimi va salohiyati chindan bo'lgan mutaxassis har qanday tashkilotda o'z o'rnnini topa boradi. Bundan ko'rinish turibdiki, maoshlar ham oshadi, hech kim bunday xodimni qo'yib yuborgisi

kelmaydi. Vaqt kelib lavozim ham ko'tariladi, katta daromad ham topiladi, boshqa joylardan yaxshi takliflar ham kelib tusha boshlaydi.

Bitta Toshkent viloyatining o'zidagi davlat tashkilotlarida shuncha ish o'rni bor ekan, respublika bo'yicha ishsizlik va bo'sh ish o'rinaliga oid raqamlarga qiziqib, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan bog'landik.

Vazirning birinchi o'rinnbosari Erkin Muhiddinov Kun.uz ga taqdim qilgan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yil 9 oy natijasi bilan O'zbekistonda ishsizlik darajasi 9,4 foizni tashkil qilgan (o'tgan yil shu davrda 11,1 foiz), ishsizlar 1 million 417 mingta (o'tgan yili 1 mln 912 ming).

Bo'sh ish o'rinalari 234 mingni tashkil qildi, shundan 92 mingtasi davlat tashkilotlari, 142 mingtasi xususiy sektordagi sub'yektlar hisobiga to'g'ri keladi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, mehnat bozorida asosan oliy va o'rta maxsus ma'lumot ega bo'Igan kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'Igani holda, ish qidiruvchilarning asosiy qismi (74 foiz) o'rta ma'lumotli ish qidiruvchilarni tashkil etadi.

O'rta ma'lumotli ish qidiruvchilarning bandligiga ko'maklashish maqsadida, xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorida tegishli o'zgartirishlar kiritilib, 2 035 ta kasblarga bo'Igan talablar oliy ma'lumotdan o'rta ma'lumotga tushirildi. Bundan tashqari, oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinaliga nomzodning talab etiladigan ma'lumoti bo'Imasa-da, lekin amaliy ko'nikma va tajribasi mavjud bo'lsa, malakani baholash markazlarida imtihon topshirib, ularning guvohnomasi bilan ishga kirishi mumkin.

Yanvar-iyun oylarida ishsizlik darajasi 13,2% ni tashkil etdi. Ish bilan ta'minlanishga muhtojlar soni 1,94 mln kishigacha ortdi." Karantin choralarini mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi", deya ta'kidladi Mehnat vazirligi.

Yanvar-iyun oylarida O'zbekistonning iqtisodiy faol aholisi orasida ishsizlik darajasi 13,2% ni tashkil etdi, deya xabar berdi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. 2019- yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich 9,1% ni tashkil etgan edi.

Ushbu ma'lumotlar Mehnat vazirligining Bandlik va mehnatni muhofaza qilish respublika ilmiy markazi tomonidan mamlakatning 101 ta shahar va tumanlarida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari asosida e'lon qilindi. Unda 490 fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, 4900 ta uy xo'jaliklari va 25,9 ming fuqaro qamrab olingan.

«Tadbirkorlik sub'ektlari va o'zini o'zi band qilgan fuqarolarga mehnat stajini hisobga olish va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi

berilishi norasmiy sektorda bandlar ulushini kamaytirish imkoniyatini bermoqda», — deyiladi xabarda.

Joriy yilning iyun oyida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi tomonidan Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan metodika bo'yicha respublikaning 101 ta shahar va tumanlarida navbatdagi ijtimoiy so'rov o'tkazildi. Unda 490 ta fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari, 4,9 mingta uy xo'jaliklari hamda 25,9 ming nafar fuqaro qamrab olindi.

Bandlik va mehnat vazirligi xabariga ko'ra, 2022 yilning 1 yanvar holati bo'yicha mehnat resurslari soni 19,3 mln kishini tashkil etib, 2020 yil shu davriga nisbatan 1,1 foizga yoki 202,6 ming kishiga oshgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'Iganlar soni 13,5 mln kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 foizga (299,3 ming kishiga) oshgan.

2022 yilning 1 yanvar holatida rasmiy sektorda band aholi soni 6,1 mln kishini tashkil qilib, 2020 yilning shu davriga nisbatan yuridik shaxslarda band bo'Iganlar soni 6,3 foizga yoki 314,8 ming kishiga oshgani kuzatildi.

Norasmiy sektorda band bo'Iganlar soni 5,8 mln kishini tashkil etib, 2021 yilning 1 oktabr holatiga nisbatan 1,0 foiz yoki 58,4 ming kishiga kamaygan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ishga muhtoj bo'Iganlarning umumiyligi soni 1,4 mln kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 9,6 foizni tashkil etdi. 16-30 yoshgacha bo'Iganlar orasida ishsizlik darajasi - 15,1 foiz, ayollar orasida ishsizlik darajasi esa - 13,3 foiz bo'ldi.

2021 yil yanvar-dekabr oylarida tuman (shahar) Aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga 879,5 ming nafar fuqaro ish topishga yordam so'rab murojaat qilgan. Murojaat qilgan fuqarolarning 393,8 ming nafari ish bilan ta'minlangan.

Mustaqillik yillarda aholi turmush darajasini oshirish, munosib ish o'rinni bilan ta'minlash hamda kadrlar tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilmuoqda. Shu bilan birga, samarali iqtisodiy islohotlar hamda intellektual salohiyat bilan bog'liq bo'Igan sohalardagi bir qator ijobjiy o'zgarishlar natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bois, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rinni topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarda o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqr his etadigan, mustaqil va yangicha

fikrلайдиган юш кадрларга бо‘лган етилоjни qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mehnat bozoridagi vaziyatni xolisona baholash, mehnatga layoqatli aholi sonini xalqaro standartlarga muvofiq aniqlash hamda mehnat resurslari balansini ishlab chiqish tartibini shakllantirishda Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlari hamda Mehnat vazirligining ish bilan ta'minlash masalalarini o‘rganish natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Mehnat resurslari balansi ma'lumotlariga ko‘ra, 2015 yilda respublikaning jami mehnat resurslari 18,3 mln kishini tashkil etib, shundan 99,4 foizi mehnatga layoqatli aholini, qolgan qismi esa ishlayotgan o‘smlar va pensionerlarni tashkil qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. <http://kun.uz>
2. <http://gazeta.uz>
3. <http://mineconomy.uz>
4. <http://hudud24.uz>
5. <http://yuz.uz>